

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Mirsaidova Maxbuba Tolibovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish va mantiqiy masalalar yechishning bosqichlari o'rgatilgan. Tanqidiy fikrlashning ahamiyati va hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi bilan birgalikda muammolarga tanqidiy yondashishni o'rgatish usullari berilgan.

Kalit so'zlar : tanqidiy, integratsiya, eksperimental tadqiqot, texnologiya, interfaol metodlar, mantiqiy, mustaqil fikrlash, matematik komponentlar, kreativlik, masalalar, motivatsiya

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim oluvchilarning fikrlashi va dunyoqarashini rivojlantirishda matematika va tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan interfaol ta'lim texnologiyalari, zamonaviy interfaol metodlar va shu bilan birga eksperimental tadqiqot loyihalarni joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda.

Davlatimiz rahbari muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa ta'lim sifati ham, muhit ham o'zgarmaydi” degan edilar.

Tanqidiy fikrlash – o'qitish predmeti emas , balki o'qitish natijasidir . Bu g'oyalarni va ularning ahamiyatini ham ko'p fikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish hamda ularni boshqa g'oyalar bilan taqqoslashdir . Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda bir nechta bosqichlarni ko'rib chiqamiz .

Birinchi bosqich – Topshiriqni yuklash bosqichi hisoblanadi . Bunda o'qituvchi har xil interfaol metodlardan foydalangan holda o'quvchilarga topshiriq beradi . Masalan “Klaster “ yoki “Baliq skeleti “ usulidan foydalanib o'quvchilarga mavzu doirasida bilgan va bilmagan fikrlarini yozib doskaga ilishadi . Ushbu bosqich davomida o'qituvchi kamroq gapirib o'quvchilardan ko'proq fikr oladi , ya'ni bunda fikrlash qobiliyati unchalik rivojlanmagan o'quvchilarning ham fikrlari diqqat bilan tinglashdan iborat . Ushbu o'quv jarayonida bir nechta maqsadli bosqich amalga oshiriladi . Birinchi navbatda mavzu haqida bilmagan ma'lumotlarni bilib olishadi va tahlil qilishadi . Natijada o'quvchilar mavzu haqida ko'proq tushunchaga ega bo'lishadi . Shuningdek ularda ziyraklik va kreativlik qobiliyatlari ha shakllanadi .

Ikkinchi bosqichda - o'quvchilar anglash va tushunish fikrlash bosqichiga kelishadi . Ular endi asta- asta berilgan narsalarning mohiyati tushunib borishadi . Bu bosqichda albatta bilim yetakchi rol o'ynaydi chunki o'quvchi matematik komponentlarni anglamasa unga berilgan masalani tushunish qiyinoq bo'lishi mumkin.Ushbu bosqichda o'quvchilarga matematik guruhlarini o'rgatishda mustaqil va shaxsiy faolligi ustunlik qiladi.Negaki bu tizim an'anaviy ta'lim tizimidan mutlaqo farq qiladi.

Uchinchi bosqich – fikrlash bosqichi bo'lib bu bosqichda o'quvchilar mustaqil fikr bera olishi va masalaga tanqidiy yondasha olishi maqsad qilib qo'yilgan.Yangi fikr va axborotlarni ular o'z qarashlari orqali ifodalay olishlari zarur .

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda bir necha ishlar amalga oshiriladi .

- O'quvchilarga mustaqil fikrlarini bayon etishlari uchun imkon berish ;

- Ularning diqqatini va kuzatuvchanligini oshirish ;
- O'quvchilarning fikrini bayon etishda qat'iylik va dadillik muhim ekanligini o'rgatish ;
- Har bir berilgan fikr noto'g'ri emasligini va har bir fikrning qadr – qiymatini anglatish ;
- Ularning tanqidiy fikr bera olishiga o'qituvchi tomonidan ishonch bildirish ;
- Tanqidiy fikrlash insonlarni maqsadi sari erishishi uchun muhim ekanligi haqida motivatsiya berish ;

Quyidagi mantiqiy topshiriqlarni 3-4 sinf o'quvchilari bilan matematika darslarida bajarish tavsiya etiladi . Bunday turdagi topshiriqlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi .

1-topshiriq : Marjona hozir 5 yoshda , 4 fasl o'tgandan so'ng u necha yoshga to'ladi ? (6 yoshga)

2- topshiriq : Said bug'doyni 3 soatda , arpani 120 minutda o'rib bo'ldi . Said hammasini necha soatda o'rib bo'ldi ? (5 soatda)

3- topshiriq : Madinaga oyisi 3 metr atlasdan chiroyli ko'ylak tikib berdi . Oyisi 3 metr shoyidan Madinaga nechta ko'ylak tikib bera oladi ? (1 ta)

4-topshiriq : Eshik oldida 24 ta oyoq kiyim bor . Uyda nechta mehmon borligini aniqlang . (12 ta)

5-topshiriq : Qaysi oyda 28 kun bor ? (hamma oyda)

6- topshiriq : 1000 metr masofaga yugurish musobaqasida 5 ta sportchi qatnashdi . Har bir sportchi qancha masofaga yugurgan ? (1000 metr)

7- topshiriq : Xo'roz tarozida ikki oyog'ida turgan holda o'lchanganda 3 kg chiqdi . Xo'roz bir oyoqda turgan holda o'lchanganda necha kg keladi ? (3 kg)

8- topshiriq : Bitta tayoqning 2 ta uchi bo'lsa , bir yarimta tayoqning nechta uchi bo'ladi ? (4 ta)

Xulosa qilib aytganda , hayotdan olingan savol va topshiriqlar o'quvchilarning ziyrakligini oshiradi . ularga o'zgacha zavq va kayfiyat beradi . nafaqat matematik bilimlarini oshirishga yordam beradi , balki ularning mantiqiy tafakkurini o'stirib dunyoqarashini kengaytiradi . O'quvchini izlanishga , topqirlikka va maqsad sari intilishga yetaklaydi . bunday topshiriqlar o'quvchini diqqatini jamlay olishga va ijodkorlik faoliyatini o'stirishga katta yordam beradi .

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sh. Mirziyoyevning “ Mamlakatimizda ta'lim- tarbiya tizimini takomillashtirish “Ilm – fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi “ dagi nutqi 30- oktabr 2020 – yil .
2. Jumayev E.E “ Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi “ (KHK) uchun) Toshkent . Turon iqbol “ , 2012 – yil
3. Jumayev M. E “ Bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi “ . O'quv qo'llanma . Toshkent . “ Ilm Ziyo “ .
4. M.M Usmonova 1-sinf Matematika kitobi . Toshkent 2023-yil .
5. E.M.Mardonov , Q.Ostonov . Matematika tarixi O'quv -uslubiy qo'llanma . Samarqand – 2015
6. E.M.Mardanov , Q.Ostonov . Matematika (gumanitar ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) Samarqand – 2019
7. E.M.Mardonov “ Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematik o'yinlarni tashkil etish “ . O'quv qo'llanma. Samarqand 2022